

Muammoli ma'ruza mohiyati

2019 yil 15-16 may kunlari Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida «Qishloq xo'jaligida resurs tejovchi innovatsion texnologiya va texnik vositalarni yaratish hamda ulardan samarali foydalanish istiqbollari» mavzusida Respublika ilmiy-texnik anjumani bo'lib o'tdi.

Anjumannning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Respublika xalq ta'limi a'lchisi, texnika fanlari doktori, TIQXMMI "Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" kafedrasi professori Shukurullo Ubaydullayevich Yo'idashev ishtirok etdi va anjumanni ochilishida "Agrar tizimi xo'jaligida mashina, mexanizm, agregatlar resursidan to'liq foydalanish va moddiy-texnika bazasini tubdan takomillashtirish: muammo va yechimlar" mavzusida muammoli ma'ruza qildi. Akademik Sh.U.Yo'idashevning muammoli ma'ruzasi anjuman qatnashchilarida, talabalar, magistrantlar, izlanuvchilar, tadqiqotchilar va ilmiy xodimlarda katta qiziqish uyg'otdi.

Akademik Sh.U. Yo'idashev Qashqadaryo viloyati televideniyesiga O'zbekiston Respublikasini agrar sohasining rivojlantirish istiqbollariga bag'ishlangan mavzuda keng qamrovli intervyu berdi.



Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov